

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar 1.2		
Fan kodi: JIXI23412	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 12	davomiyligi: 2 semestr
Kafedra: Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: Menejment (kimyo va oziq-ovqat sanoati) va Marketing (kimyo va oziq-ovqat sanoati)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 360	Email: phdakbar90@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li		
Prerekvizitlar: Kimyo sanoati va Tanlov turi: majburiy fan umum ta'lim kadrlarni tayyorlash		
<p>Fanning qisqacha bayoni: “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Mazkur fan iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi. Fanni puxta o'zlashtirish nazariy materiallarni bilish bilan birga, talabalarning mutaxassislik va ishlab chiqarish amaliyoti davrida va universitetni bitirgandan keyingi ishlarda ko'nikma sifatida xizmat qiladi.</p>		

Fanning maqsadi: Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlangan strategiyamiz va inqirozga qarshi qabul qilingan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta. Ushbu o'quv dasturi “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanidan chuqur nazariy va amaliy bilimlarni egallashda, tashqi iqtisodiy muhitni chuqur tahlil qilishda, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganishda, shuningdek ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

➤ «Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar» fani milliy xo'jaliklar faoliyatiga tegishli barcha savollarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Jahon xo'jaligi rivojlanishi, uning tizimi o'zgarishiga ta'sir yetuvchi omillar, Jahon xo'jaligi taraqqiyoti asosiy tendentsiyalari, tashqi iqtisodiy siyosatni olib borishning qoida va xususiyatlari, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tashkiliy asoslari, valyuta muosabatlari, tashqi savdo, kapital immigratsiya, ish kuchini xalqaro ayirboshlash kabi Jahon iqtisodiyotining muxim masalalarini taxlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

➤ SHuningdek, mazkur fan Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining tarkibi, asosiy yo'nalishlari va an'alarini, xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining muxim yo'nalishlari va istiqbollari, xamda O'zbekistonning jahon mexnat taqsimotdagi o'rni to'g'risida munozaralar yuritadi va xulosalar beradi. Shu qatorda rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning taraqqiyot muammolari hamda Jahon xo'jaligi integratsiyasiga to'g'risida *bilish va ulardan foydalana olish*;

➤ Jahon iqtisodiyoti hodisalari va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, xalqaro iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish, turli xil konsepsiyalar tayyorlash, ma'lumotlarni sintez qilish, ularni ajratib olish, tahlil etish va tadqiqot qilish;

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Shuningdek, mavzudan kelib chiqib dars mashg'uloti mehmonxonada sayyor dars tarzida olib boriladi. **Mustaqil ta'lim**

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar asosiy kurinishlari va xususiyatlari. Xalqaro mexnat taqsimoti.	6	6	18
2	Xalqaro savdoning rivojlanish nazariyalari va modellari.	6	6	18
3	Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish va	6	6	18
4	Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi.	6	6	18
5	Xalqaro kapital migratsiyasi va transmilliy kompaniyalar	6	6	18
6	Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning tutgan	6	6	18
7	Xalqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlar	6	6	18
8	Jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti	6	6	18
9	Rivojlanayotgan mamlakatlar-xalqaro iqtisodiy	6	6	18
10	Xalqaro iqtisodiy integratsiya	6	6	18
11	Jahon iqtisodiyotini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning	6	6	18
12	Jahon xo'jaligining globallashtirish jarayonlarida	6	6	18
Jami		72	72	216

Asosiy adabiyotlar

1. A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, SH.X.Xajibakiyev. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. Toshkent-2015. 580 b.
2. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. Voris-nashriyot-2014. 320 b.
3. Z.Y.Yo'ldoshev. X.T.Xalilova. Moliya va jahon iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. Cho'lpon-2014.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. SH.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimiz ni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz., 2017.
5. SH.M.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonlining garovi. 2017.
6. SH.M.Mirziyoev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2017 y

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Shanba	10.00 – 12.00	312